

EFIMIZMLAR VA ULARNING LINGVISTIK TAHLILI

TerDU talabasi To'xtayeva Sarvinoz Sherali qizi

Ilmiy rahbar: D.Ergasheva

Annotatsiya: *O'zbek tili jozibadorligini oshiruvchi, ekspressiv bo'yoqqa ega so'zlardan o'rinali foydalana olish, inson ruhiyatiga salbiy emas ijobiy ta'sir etuvchi so'zlardan o'rinali foydalana olish bo'yicha qisqacha lingvistik tahlil berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *tabu, efimizm, desfimizm, juvon, jannatmakon, varvarizm, A.M. Katzev, A.Omonturduyev, valinemat, ekspressivlik, metofora, metonimiya.*

O'zbek milliy tilimizda kishilarning ko'ngliga tegmaslik uchun qo'llaniladigan nozik, muloyim va madaniyatli ifodalar hamda lingivistik "umuman, ochiq aytilishi noo'rin, noqulay, madaniyatsizlik, ma'naviyatsizlik, odobsizlik, axloqsizlik hisoblangan so'z va ibora (tabu, disfemizm, kakofemizm, varvarizm, vulgarizm)larning xotirada salbiy ta'sirini yumshatish, susaytirish, kamaytirish, yopish, mumkinqadar beozorroq tusga kiritish, tasviriy – evfonik tarzda bayon etish va shu bilan nutqiy mukammallikka – go'zallikk – til madaniyatiga erishish maqsadida ishlatiladigan vositalar juda ko'plab uchraydi. Shunday tilning, nutqning lingvomadaniy birliklaridan biri – bu evfemizmlar hisoblanadi.[1.53]

Evfemizm atamasi grek tilidan olingan bo'lib, ko'pchilik mualliflar fikriga ko'ra, noo'rin birliking o'rinali birlikka almashinushi sifatida qaraladi. A.Hojiyevning 2002 yilda qayta nashr qilingan "Lingvistik terminlar izohli lug'ati"da evfemizmga quyidagicha izoh beriladi: "Evfemizm (grek. euphemismos; eu — yaxshi, phemi — gapiraman) narsa-hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi, qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu ornida qo'pol bo'lмаган, botmaydigan so'z, iborani qo'llash. Masalan, ikkiqat so'zi ornida homilador, og'ir oyoqli so'zlarini qo'llash."

Efimizmlar tasnifi ustida to'xtaladigan bo'lsak, tilshunos olim A.M. Katzev ajratib chiqqan tasniflarni ko'rib chiqamiz. A.M.Katsev evfemizmlarni 8ta mavzu doirasiga ajratadi:

- 1) ilohiy kuchlar nomi;
- 2) o'lim va kasallikni anglatuvchi birliklar;
- 3) nuqson bilan bog'liq nomlar;
- 4) jins bilan bog'liq nomlar;
- 5) kambag'allikni anglatuvchi nomlar;

- 6) ayrim kasblarni anglatuvchi nomlar;
- 7) aqliy va jismoniy nuqson nomlari;
- 8) kiyim qismlari nomlari

Evfemizmlarni tasniflash uning mohiyatini chuqurroq o'rganishga, turli nuqtai nazardan kuzatishga, tadqiq etishga, ushbu hodisaning tuzilishini aniqroq yoritishga xizmat qiladi, xilma-xil tasnif esa evfemizmlarning ko'p qirraliligidan va murakkab jarayon mahsuli ekanligidan dalolat beradi. [2.14]

Quyidagi fikrlarimiz tasdig'i o'laroq badiiy asarlarda uchraydigan efimizmlardan namunalar tahsilini ko'rib chiqsak.

Bas, siz bilan biz ishchi-dehqon xodimi bo'la turib, nega valine'matimizga oyog' xizmatini o'taymiz [3]. Bu yerda Stalin nomini almashtiruvchi mazkur ifoda uslubiy evfema sifatida hurmat munosabatini yuzaga keltirgan desak, to'g'ri bo'lmaydi. Bu so'z kinoya asosidagi evfema sifatida qaralishga loyiq.

Quyidagi jumlada birlik o'z ma'nosida yuzaga chiqqan va evfemik "ohangdan" xolidek tasavvur uyg'otadi: Qullaridan biri valine'matimga ikki kalima arzim bor, deydir. [4.521] "Valine'mat"ning ismini tutishga istihola mavjudligi uning evfemikligini ko'rsatadi.

Jannatmakon so'ziga ham Amir Umarxon shaxsini ifodalash uchun evfemik ma'no yuklangan: – Siz "jannatmakon"ni ko'rganmisiz?" [5]

Onasi o'pmagan. Sen uni bilmas ekansan, onasi o'pmagan qiz-da [6.218]. O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha izoh berilgan: "Onasi o'pmagan qiz"- Begona qo'l tegmagan, pok, iffatli qiz; bokira. Bundan ham ko'rinish turibdiki efimizmlar nutqimizni ko'rkmashirmay qolmaydi.

Humoyun hindi tilini o'rgangan, bultur Chandbibi degan hind qiziga ham uylangan edi. Bu juvon kecha xobgohda Humoyunning ko'ksiga bosh qo'yib yum-yum yig'lagani hozir esiga tushib ko'ngli xira bo'ldi [7.328]. O'zbek tili izohli lug'atida juvon– yosh, umrining yarmiga ham yetmagan odam yoki hayvon ma'nosida keladi.

Yozuvchi Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" tarixiy romanidan olingan parcha orqali davom etamiz.

Tohir Robiyaning Andijon qo'rg'onida birorta bo'yni yo'g'on tuzog'iga ilinib qolishi mumkinligini o'yladi-yu: Yo'q! – dedi. – Meni desang qo'rg'onga borma! Robiya Tohirning baxmalday mayin mo'ylovi tagida xiyol titrab turgan labiga va iztirob bilan chaqnayotgan qo'ng'ir ko'zlariga tikildi. [8.314]. Yozuvchi zo'ravon, chapani, mushtumzo'r kabi qo'pol va dag'al so'zlarining o'rniga ustalik bilan nutq madaniyatining yuqori darajasidagi ko'rinishida bo'yni yo'g'on lingvomadaniy birligi sanalgan evfemizmni ishlatgan.

Lingvokulturologik pozitsiyalardan evfemizmlarni o'rganishda metaforik va metonimik ko'chirish orqali hosil qilingan birliklar alohida qiziqish-

uyg'otadi. Odatda ko'proq tibbiy yoki harbiy sirlarni ehtiyotkorlik bilan saqlashda ham evfemizmlar mahorat bilan qollaniladi. Bu holatni biz tibbiyat an'analarida yanada aniqroq kuzatishimizmumkin. Ayniqsa bemorlarga davolab bo'lmaydigan, tibbiyat ojizlik qiladigan va chorasi yo'q bo'lgan kasallik borligini e'lon qilish tavsiya etilmasligi tamoyillarida guvoh bo'lamiz. shuning uchun onkologik kasallikkarni bildiruvchi nomlar (neoplazma, o'simta, saraton) yashiriladi va evfemizmlar bilan almashtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya" nomli ilmiy-amaliy konfrensiya jurnali
2. X.Qodirova "O'zbek tilida efimizm va desfimizm" Bookmany Print nashriyoti Toshkent 2022-yil
3. A.Qodiriy "Shallaqi" kichik hajviy asari
4. A. Qodiriy "Mehrobdan chayon " Toshkent G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1994-yil
5. A. Qodiriy "1819-yil yodgori" nomli maqolasidan
6. N.A'minov "Qitig'i o'lмаган qiz"
7. "O'zbek tilining izohli lug'ati", birinchi jild, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti
8. Pirimqul Qodirov. "Yulduzli tunlar" romani. www.ziyouz.com kutubxonasi. www.ziyouz.com -2008